

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

B.X.Xushboqov

**Renessans ta'lim universiteti "Pedagogik ta'lim va psixologiya" kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19674660>**

Ta'lim sohasida bo'layotgan izchil harakatlar qator qaror va qonunlar bu – o'quvchi, talabalarimizni zamon talablariga mos bo'lib ulg'ayishlari, chuqur bilim egallashlari kreativlik salohiyatini shakllantirishlari uchundir. Hozirgi kunda ko'plab yangiliklar idish yuvadigan mashina, virtual dunyo, inson vazifalarini bajaruvchi robotlar bular hammasi inson tomonidan yaratilgan ya'ni inson tasavvur, tafakkuri natijasida dunyoga kelgan g'oya va fikrlar mahsulidir. Insonning tafakkuri, dunyo qarashi, aql-idroki qancha keng bo'lsa, uning ijod namunalari ham shuncha sermazmun bo'ladi. Bu esa o'z navbatida pedagogika fanidagi "kreativ" tushunchasiga borib taqaladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan. Zamon talablariga javob beradigan va raqobatbardosh mutaxassis bo'lish uchun bitiruvchi shaxsida rivojlangan ijodiy qobiliyatlarga, mustaqil va o'ziga xos fikrlashga ega bo'lishlari, ijodiy faoliyat davomida boshqalarning yordamisiz bilim olish va tahlil qila olishlari kerak [3].

Talabalarda yuzaga keladigan va ular faoliyatining xilma-xilligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning keng doirasi shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga imkon beradigan innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi [9].

Hozirgi vaqtda kasbiylashuv jarayonida ijodkor shaxsni shakllantirish xususiyatlarini o'rganishning zamonaviy bosqichining dolzarb muammolarini quyidagilar sifatida belgilash mumkin: yangicha fikrlash va harakat qilish zarurati bilan pedagogda muayyan shaxsiy tuzilmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi o'rtasidagi ziddiyat bilan bog'liq pedagogik muammolar; yaxlit shaxsni o'rganish muammolari; ijodiy shaxsning ijodiy imkoniyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy shaxsni tadqiq etish muammolari va ularni professional faoliyatda qo'llash eng ko'p darajada bir qator ijodiy kasblarga taalluqlidir; haqiqatni yangicha ko'rish, idrok etish, fikrlash va faoliyat stereotiplarini yengish qobiliyatini, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish [2].

Zamonaviy fanda "pedagogik texnologiya" atamasining ko'plab talqinlari mavjud.

Zamonaviy dunyoda pedagogning roli muhim bo'lib qolmoqda. Pedagog o'z faoliyatini sifatli va munosib amalga oshirishi uchun ta'lim sohasidagi innovasion texnologiyalarni doimiy ravishda o'zlashtirib borishi zarur.

Tadqiqotchilar kreativlikni konstruktiv nostandart fikrlash va xatti-harakatlar, shuningdek, o'z tajribasini anglash va rivojlantirish qobiliyatida namoyon bo'ladigan ichki salohiyat, inson resursi sifatida ko'rib chiqadilar [4].

Kreativlik - bu muammolarni g'ayrioddiy tarzda ko'rib chiqish va o'ziga xos tarzda hal qilish qobiliyatidir. Muammolarni nostandart hal qilish uchun insonning ijodiy resurslari, ya'ni psixologik tayyorgarligi va ma'lum bilim va ko'nikmalar bazasi jalb qilinishi kerak. Kreativlik muammolarga, bilimlarning yetishmasligi yoki cheklanganligiga nisbatan yuqori sezgirlikni; gipotezalarni ilgari surish asosida muammolarning yechimini topish harakatlarini; muayyan texnologiyalar bo'yicha muammolar yechimini shakllantirish harakatlarini o'z ichiga oladi.

Kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv har bir ta'lim oluvchiga o'z ijodiy salohiyatini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, kelajakda o'zini o'zi anglash, ijodiy o'zini o'zi faollashtirish, o'zini o'zi baholash zarurligini ta'minlaydi [1].

Ta'lim oluvchilarda u yoki bu fanga qiziqish uyg'otish uchun ta'lim faoliyatiga kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini kiritish lozim.

Har bir texnologiya shaxsning psixik shakllanishini belgilovchi manbalar haqidagi qarashlardan kelib chiqadi. Shunday qilib, texnologiya jamoaviy faoliyatda ham, individual faoliyatda ham qulay bo'lishi muhimdir.

Kreativlikni rivojlantirish yangi muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga va uning yechimini maqsadli ongli ravishda izlashga yordam beradigan ijodiy fikrlashni faollashtiradigan usullar bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi va kreativlikni shakllantiruvchi metodlarni quyidagi mezonlarga ko'ra ajratish mumkin [5].

1. Kreativ muhitni tashkil etishga yo'naltirilgan metodlar:

- aqliy hujum, ya'ni har qanday baholash mezonlari va g'oyalarni izlash yo'nalishlarini hisobga olmagan holda ijodiy faoliyatning guruh usuli;

- sinektika g'oyalarni ilgari surish va g'oyalarni yaratish usullarini aniqlash bosqichida ularni muhokama qilishga yo'l qo'yilganda aqliy hujum turi sifatida.

2. Muammo bo'yicha bilimlarni to'plash va tuzishni optimallashtirish usullari (dastlabki ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning turli sxemalari, farazlarni qurish, intuitiv g'oyalarni tekshirish va boshqalar):

- IMEN usuli (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi). Ushbu metodika ideal yakuniy natijaga yo'naltirilgan muammoni hal qilish jarayonida ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tuzilmaviy-mantiqiy dastur hisoblanadi;

- Tasavurning tuzilmaviy-mantiqiy sxemalari mehnat natijasini uni boshlashdan oldin taqdim etishning oqilona fikrlash jarayoni sifatida (mahsulot obrazini qurish, dasturni yaratish va uni olish jarayonini modellashtirish).

3. Intuitiv-mantiqiy o'yinlar asosiga quriladigan intuitiv tafakkurni mashq qildirish usullari.

Metodlardan tashqari, ijodiy, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning juda xilma-xil usullari mavjud. Ular yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, turli muammolarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkonini beradi. Masalan, B.Kleg, P.Bichning "Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning intensiv kursi" kitobida "Metaforik gapir", "Chuqur konsentratsiya", "Yolg'on model", "Qirrada", "Xolistik ong" kabi texnikalar keltirilgan. "Kompas" "Ishga vaqt, ermakka soat", "Ijod resepti" va boshqalar. Ushbu texnikalarning har biri inson ijodiy resurslarining ma'lum bir turini aktallashtirish imkonini beradi. Jumladan, "Kompas" texnikasi noto'g'ri ta'riflar bilan xiralashgan haqiqiy muammolarni ochish uchun ishlatiladi. "Ishga vaqt, o'yin-kulgiga soat" texnikasi ma'lumotlarni eslab qolishni yaxshilashga va o'z bilimlarini oshirishga yordam beradi. "Ijodkorlik resepti" texnikasi vaziyatni ko'rish nuqtai nazarini, muammoga qarashni o'zgartiradi va natijada ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Kreativlikni rivojlantirish texnikasini qo'llashdan asosiy maqsad, avvalambor, oddiylikni, odatiylikni yengib, favquloddalikka erishishdir [7].

O'qituvchining o'zini ijodiy ifoda etishi mustaqil insonlar jamiyatida amalga oshiriladigan shaxsning erkinlikka intilishi orqali amalga oshiriladigan o'zini o'zi ro'yobga chiqarishga, pedagogning o'zini o'zi amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Turli pozitsiyalarni

to'ldirish va boyitishga ko'maklashuvchi o'qitishning jarayonida chuqur muloqotni tashkil etish; yuzlab muhit normalarini egallash va tashqi dunyoda ham, ichki dunyoda ham yangi subektni shakllantirish bilan bog'liq o'zgarishlar kiradi [6].

Ijodiy o'zini o'zi namoyon etish pedagogning odatdagi kreativlik chegarasidan chiqish, muayyan ishdan yuqori ko'tarilish, faoliyatning ko'p funksiyali xulq-atvorga aylanishiga yo'l qo'ymaslik qobiliyatini belgilaydi. Ijodiy o'zini o'zi namoyon qilish - bu shunchaki o'zini boshqalar uchun taqdim etish emas, balki insonning o'zini, uning individual ongini, bilish va faoliyat imkoniyatlarini qayta tiklashdir. O'z "Myen"ini namoyon etayotgan inson madaniyatga yuz tutadi. U o'zgartiruvchi faoliyatga, o'zini o'zi rivojlantirishga qodir ekanligi bilan taqazolanadi.

Kreativlik o'qituvchiga ijtimoiy va ta'lim muhitining bo'lajak o'zgarishlarini, o'quv jamoasi va ta'lim jarayonining har bir sub'yekti rivojlanish dinamikasini oldindan ko'ra bilish, yangi sharoitlarda yaroqsiz bo'lgan o'quv faoliyatini tashkil etishning trivial usullaridan o'z vaqtida voz kechish va o'z ishini yangi talablarga muvofiqlashtirish imkonini beradi [8].

Keltirilgan fikrlarga ko'ra, pedagogik jarayondan ko'zlangan asosiy maqsad har bir faoliyatga ijodiy yondashadigan, kreativ shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Shunday ekan, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan ko'zlangan asosiy maqsad kelajakda o'zini ustida mustaqil faoliyat olib boradigan, ijodiy va kreativ fikrlash imkoniyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Барышева Т.А. Креативность. Диагностика и развитие. СПб., 2002. 205 с.
2. Бодров В.А. Психологические исследования проблемы профессионализации личности // Психологические исследования проблемы формирования личности профессионала: сб. науч. тр. М., 1991. С. 3-26.
3. Бузгалин А. Человек, рынок и капитал в экономике XXI века // Вопросы экономики.. 2017. № 3. С. 125-144.
4. Гусарова Е.Н. Творческий потенциал личности педагога // Развитие личности в образовательных системах Южно-Российского региона: тез. докл. X годовичного собрания Южного отделения РАО и XXII региональных психолого-педагогических чтений Юга России. Ч. 1. Ростов н/Д, 2003. С. 148-149.
5. Еремина Л.И. Педагогические технологии как средство развития креативности студентов // Сопровождение субъектов образовательной деятельности в системе непрерывного образования. Логопедическое сопровождение. 2013. № 3. С. 15-19.
6. Зикунва И. В. Феномен предпринимательской активности в бизнес-цикле постиндустриального развития: монография. – СПб.: Издательство политехнического университета, 2017. 132 с.
7. Клег Б., Бич П. Интенсивный курс развитию творческого мышления // М., АСТ, 2004. 392 с.
8. Кочергина О.А. Вариативность общепедагогической подготовки как условие развития творческой индивидуальности будущих учителей: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Ростов н/Д, 2002. 22 с.
9. Пимонова С.В. Психологические аспекты и условия проявления креативности в студенческом возрасте. Ставрополь, 2004. 32 с.